BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATNNI O‘RGANISH BOSQICHLARI

Doniyorova Dinora Kenjaboy qizi
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
Tursunboyeva Nurjahon Mahmudjon qizi
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu tezisda boshlang‘ich sinflarda matnni o‘rganish bosqichlari haqida fikr yuritilgan bo‘lib, darslikdagi matnlar tahlili qilinib ularning ma’no va mazmuni haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, 3-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligida berilgan Muhabbat Hamidovaning “Odob” nomli matni tahlili keltirilgan.

Kalit so‘z: Boshlang‘ich sinf, o‘qish, matnni tahlil qilish, tahlil, matn tanlash, o‘qish tezligi.

Abstract:this thesis focused on the stages of text learning in the elementary grades, and analyzed the texts in the textbook and talked about their meaning and content. Also presented is an analysis of the text of the love Hamidova, entitled” decency“, given in the 3rd grade textbook” reading literacy".

Key words: Elementary class, reading, text analysis, analysis, text selection, reading speed.

KIRISH. Mustaqilligimizdan so‘ng yurtimizda ta'lim sohasida ko‘plab yangiliklar va o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 yildagi PF-5712- on farmoniga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim tizimini tasdiqlash ilgari surilgan. Boshlang‘ich sinf darsliklari hozirda ko‘plab davlatlarning darsliklari bilan sinov muddati o‘tamoqda. Misol tariqasida Finlandiya tizimi asosida yaratilgan darslik haqida so‘z olib borar ekanmiz bu darslik o‘quvchilarning qiziqishlariga mos ravishda ishlab chiqilgan. Fanlarning o‘zaro integratsiyalashganligi o‘quvchilarning salohiyatini yanada oshiradi. Darslikda ijodiy vazifalar va muammolarni hal qilish topshiriqlari ham mavjud.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida ona tili va o‘qish savodxonligi ta’limining asosiy maqsadi – o‘quvchilarning kommunikativ savodxonlik darajasini oshirish, ularni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish, o‘quvchilar lug‘at boyligini oshirish, fikr mahsulini to‘g‘ri ravon va ongli ifodalashga o‘rgatish ekan, uni amalga oshirishning ishonchli omillaridan biri - matn yaratishning samarali texnologiyalarini ishlab chiqish, uni o‘quv

amaliyotiga izchil joriy etish hisoblanadi. Matn – bu ma'lum bir maqsadga erishish uchun so‘zlar, jumlalar va paragraflardan tashkil topgan ifoda hisoblanadi. Matnlar o‘qish, yozish va muloqot jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ular turli ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin: hikoyalar, maqollar, insholar va dialoglar kabi. Matn tuzish bolalarga bir qator foydali ko‘nikmalar va manfaatlar beradi va ular quyidagilar:

1. Matn tuzish bolalarning tasavvurini kengaytiradi va ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

2. O‘z fikrlarini aniq va izchil ifodalash ko‘nikmalarini shakllantiradi, bu esa ularning yozma nutqini yaxshilaydi.

3. Matn tuzish jarayonida mantiqiy tahlil va tartibga solish ko‘nikmalari rivojlanadi, bolalar fikrini izchil ifoda etishni o‘rganadilar.

4. Lug‘at boyitish, grammatik qoidalarni o‘zlashtirish va tilni ishlatish qobiliyatini oshiradi.

5. O‘z his- tuyg‘ularini va fikrlarini erkin bayon etish imkonini beradi, bu esa o‘z-o‘zini anglashga yordam beradi.

6. O‘ziga qiziqarli mavzularni tanlash orqali o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Bu ko‘nikmalarni egallagan bola matnni qiyinchiliksiz tuza olishi mumkin bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflardan matnni o‘rganish jarayoni bolalarning o‘qish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon bir necha bosqichlardan iborat bo‘lib, har biri o‘quvchilarning matnni tushunish va tanqidiy fikrlashini oshirishga qaratilgan.

1. Matnni tanlash. O‘quvchilar uchun qiziqarli va foydali matnlar tanlash muhimdir. Ularning yoshiga mos keladigan tushunarli va ma'lumotlarga boy bo‘lishi zarur. Masalan, ertaklar, qisqa hikoyalar yoki ilmiy maqolalar tanlanishi mumkin.

2. Oldindan ko‘rib chiqish. O‘quvchilar matnni o‘qishdan oldin, matnning mavzusi, muallifi va asosiy g‘oyasi haqida suhbat qilishi kerak. Bu jarayon bolalarning qiziqishlarini oshirishga va matnni o‘zlashtirishga yordam beradi.

3. O‘qish jarayoni. O‘quvchilar matnni o‘qiydilar. Bu bosqichda talaffuz va o‘qish tezligiga e'tibor berish zarur. O‘qish jarayonida o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash, ularga kerakli ko‘rsatmalar berish muhimdir.

4. Tushunishni tekshirish. O‘qishdan so‘ng, o‘quvchilarga savollar berish orqali ularning matnini qanday tushunganini aniqlash kerak. Savollar aniq va qiziqarli bo‘lishi lozim, bu esa bolalar o‘rtasida muhokama va fikr almashinishini rag‘batlantiradi.

5. Muvofiqlik va tahlil. O‘quvchilar o‘qilgan matnni muhokama qilishadi. Ular matnning asosiy g‘oyasi, qahramonlari va voqealar haqida fikr yuritishlari, o‘z nuqtai nazarini bildirishlari mumkin. Bu jarayon tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

6. Ijodiy faoliyat. Matn asosida ijodiy ishlarda e'tibor berish zarur. O‘quvchilar matndan ilhomlanib rasm chizish, dramatizatsiya qilish yoki yangi hikoyalar yozish orqali o‘z ijodiy qobilyatlarini namoyish etishlari mumkin. Bu jarayon ularning bilim doirasini kengaytiradi.

7. Takrorlash va qiyoslash. O‘quvchilar o‘qilgan matnni boshqa matnlar bilan qiyoslash orqali tushunishlarini chuqurlashtirish mumkin. Bu jarayon ularning bilimdoirasini kengaytradi.

8. Natijalarni baholash. O‘quvchilar o‘z o‘qish jarayonlari haqida fikr yuritishadi. Bu baholash nafaqat o‘qituvchisiga balki o‘quvchilarga ham o‘z o‘zgarishlarini tushunishiga yordam beradi.

3-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligining 57-betida Muhabbat Hamidovaning “Odob” nomli matnini ko‘rib chiqsak. Ushbu matnni quyidagi bosqichlarda tahlil qilamiz.

1. Matnni tanlab olamiz.

2. O‘qishdan avval uning muallifi ya'ni Muhabbat Hamidova ekanligiga va mavzusiga e'tibor qaratamiz.

3. Matnni talaffuz va o‘qish tezligiga e'tibor bergan holda o‘qib chiqamiz.

4. Matn to‘g‘risidagi quyidagi savollarni o‘quvchilarga beramiz.

a) Muallif hikoya orqali nima demoqchi bo‘lgan.

b) Nima uchun madina maktabga bormadi.

5. Matn birgalikda muhokama qilinadi. Uning qahramonlari Madina, Karima opa, Hakima xola Matluba kelinoyi.

6. Matnga mos rasm chiziladi.

7. Matnni darslikdagi boshqa matnlar bilan solishtiramiz. Ustun jihatlarini sanaymiz.

8. Natijalarni baholaymiz.

Boshlang‘ich sinflarda matnni o‘rganish bosqichlari o‘quvchilarning o‘qish va tushunish qobiliyatlarini rivojlanishiga qaratilgan. Har bir bosqich o‘ziga xos vazifalar va uslublarga ega bo‘lib, ularning bilim va kunikimalarini kengaytirish uchun muhimdir. O‘qituvchilar bu jarayonni samarali tashkil etish orqali bolalar hayotida kitobning ahamiyatini oshirishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. 29.04.2019-yil

2. G‘ulomova X, Yo‘ldosheva Sh. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qish metodikasi (Ma’ruzalar matni). 2-qism. Toshkent, 2002.

3. 3-sinf “O‘qish savodxonligi” 2023-yil.

4. http//universalpublishings.com.